



15-dars. Sonlarni (50 – 32) ko'rinishda ayirish



1. Sinfga 50 ta qalam sotib olindi. 32 ta qalam o'quvchilarga tarqatildi. Nechta qalam qoldi?



5 o'n. – 3 o'n. 2 birl. = 4 o'n. 10 birl. – 3 o'n. 2 birl. = 1 o'n. 8 birl.



Yaxlit sonlardan ayirishda bir **o'nlik** olinadi va u **10 birlikka** aylantiriladi. O'nliklar ustiga nuqta qo'yiladi. Shunda birliklardan birliklarni, o'nliklardan esa o'nliklarni ayirish mumkin bo'ladi. O'nliklar bittaga kamaygani yodda tutiladi.



2. Misollarni yuqoridagi namuna bo'yicha yeching.

$$\begin{array}{r} 60 - 27 \\ 20 - 18 \end{array}$$


$$\begin{array}{r} 40 - 14 \\ 90 - 41 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 70 - 39 \\ 50 - 27 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 80 - 46 \\ 30 - 25 \end{array}$$



3. Tabiiy fanlar darslari uchun 30 ta kompas sotib olindi. Birinchi qatordagilarga 8 ta, ikkinchi qatordagilarga 9 ta kompas tarqatildi. Uchinchi qatordagilarga nechta kompas qoldi?



4. Chap va o'ng qismlarni hisoblang va taqqoslang.

$$60 - 45 \quad \square \quad 14 + 6$$



$$80 - 16 \quad \square \quad 32 + 48$$

$$18 + 12 \quad \square \quad 50 - 21$$

$$70 - 24 \quad \square \quad 37 + 13$$



5. Sinfda x ta katakli va y ta bir chiziqli daftar bor. Har bir sxema qanday savolga javob bo'ladi? Ularning har biri uchun ifoda yozing.



6. Har bir masala uchun ifoda yozing.

- a) Qalamdonda x ta rangli va 3 ta oddiy qalam bor. Qalamdonda jami nechta qalam bor?
- b) Qutida 90 ta bo'r bor edi. Bir hafta davomida a ta bo'r ishlatildi. Qutida nechta bo'r qoldi?
- d) Bir minutda Sardor b ta, Jasur esa undan 7 ta ko'p so'z o'qidi. Bir minutda Jasur nechta so'z o'qigan?



7. Akmal ikkita son o'yladi. Ularning yig'indisi 20 ga, ayirmasi esa 10 ga teng. Bu sonlarni topa olasizmi?



8. Hisoblang. Namuna bo'yicha har bir misolga teskari misollar yozing.

Namuna:

50	-	23	=	27				23	+	27	=	50
50	-	27	=	23				27	+	23	=	50

$$80 - 27$$

$$60 - 42$$

$$70 - 36$$

$$90 - 79$$

9. Karim 80 betlik kitob o'qimoqda. U birinchi kun kitobning 13 betini, ikkinchi kun esa 22 betini o'qidi. Karim kitobning yana necha betini o'qishi kerak?

